

## **PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING HUQUQBUZARLIKLARNI BARVAQT OLDINI OLİSH FAOLIYATI**

*O'zbekiston Respublikasi*

*IIV Akademiyasi kursanti*

*Absalomov Eldor O'ktam o'g'li*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida profilaktika inspektorlarining jinoyatchilik va huquqbazarliklarning barvaqt oldini olishdagi o'rni, ularning vazifalari, amaliy faoliyat yo'nalishlari va duch kelinayotgan muammolari yoritilgan. Maqolada mavjud muammolarni hal etish bo'yicha takliflar ham berilgan.

**Kalit so'zlar:** Profilaktika, huquqbazarlik, jinoyatchilik, ichki ishlar, xavfsizlik, nazorat, mahalla.

**Annotation:** This article explores the role of preventive inspectors in the Republic of Uzbekistan in the early prevention of crimes and offenses. It highlights their responsibilities, practical activities, and the challenges they face. The article also provides suggestions for addressing existing issues.

**Keywords:** Prevention, offense, crime, internal affairs, safety, control, community.

### **Kirish**

Huquqbazarliklarning oldini olish – jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, xavfsiz va huquqiy muhit yaratishning muhim omillaridan biridir. Bu borada ichki ishlar organlarining, xususan, profilaktika inspektorlarining roli alohida ahamiyatga ega. Ular fuqarolar bilan bevosa muloqotda bo'lib, mahallalardagi ijtimoiy holatni chuqur o'rganadi, xavf guruhidagi shaxslar bilan ishlaydi hamda jinoyat sodir etilishining oldini olishga yo'naltirilgan kompleks tadbirlarni amalga oshiradilar.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirish, ularning mas'uliyatini oshirish va aholiga yaqinlashtirish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, "mahallabay" ishlash tizimining joriy etilishi profilaktika inspektorlarining aholi bilan yanada samarali hamkorlikda ishlashini ta'minlamoqda. Ushbu maqolada profilaktika inspektorlarining huquqbazarliklarni barvaqt oldini olishdagi faoliyati, ularning asosiy vazifalari va duch kelayotgan muammolari atroficha yoritiladi.

### **Asosiy qism**

#### 1. Profilaktika inspektorlarining huquqiy maqomi va vazifalari

O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, profilaktika inspektorlari jinoyatchilikni oldini olish, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, huquqbazarliklarni aniqlash va ularning barvaqt oldini olish bo'yicha

kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Ular, shuningdek, xavfli guruhga mansub bo‘lgan shaxslarni nazorat qilish, ma’muriy nazoratda bo‘lgan fuqarolar bilan tizimli ishslash, oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashish va yoshlar bilan tarbiyaviy ishlar olib borish kabi muhim vazifalarni bajaradilar.

Profilaktika inspektori bir necha mahalla yoki hududga biriktirilgan bo‘lib, u yerda doimiy ravishda aholining yashash sharoitini, ijtimoiy muhitni, muammolarni aniqlab boradi. Bu orqali u jinoyat yoki huquqbazarlik sodir etilishining ehtimoli bo‘lgan joylarni aniqlab, kerakli choralarini ko‘radi.

## 2. Huquqbazarliklarning barvaqt oldini olishda olib borilayotgan faoliyatlar

### a) Tahliliy va monitoring ishlari

Profilaktika inspektorlari jinoyatchilikka oid statistik ma’lumotlar asosida xavfli hududlar va shaxslarni aniqlab, ularning oldini olishga yo‘naltirilgan profilaktik reja asosida ish olib boradi. Bu ishlar, asosan, quyidagilardan iborat:

muayyan hududda jinoyatchilikka moyil shaxslarni ro‘yxatga olish;

profilaktik suhbatlar o‘tkazish;

jamoatchilik bilan hamkorlikda nazoratni kuchaytirish;

profilaktik tadbirlar o‘tkazish (ma’rifiy seminarlar, huquqiy savodxonlik darslari, sport tadbirlari va boshqalar).

### b) Ma’muriy nazorat va ijtimoiy yordam

Huquqbazarlikka moyil yoki ilgari jinoyat sodir etgan shaxslar ustidan muntazam ma’muriy nazorat o‘rnataladi. Shu bilan birga, ularning ijtimoiy muammolari, ish bilan ta’minlanish holati ham o‘rganilib, kerak bo‘lsa tegishli organlarga murojaat qilinadi. Bu, o‘z navbatida, jinoyatning ildiz sabablarini bartaraf etishga xizmat qiladi.

### c) Yoshlar va oila bilan ishslash

Profilaktika inspektorlari yoshlar o‘rtasida huquqbazarliklarning oldini olish borasida maktablar, kollejlar va oliy o‘quv yurtlari bilan hamkorlikda ishlaydi. Ayni vaqtda, muammoli oilalarni aniqlab, ulardagи nizolarni ijtimoiy xizmatlar bilan hamkorlikda hal qilishga harakat qiladilar.

## 3. Faoliyatda duch kelinayotgan muammolar

Profilaktika inspektorlarining faoliyatini samarali olib borishda quyidagi muammolar mavjud:

inspektorlarning hududga nisbatan soni yetarli emasligi;

zarur texnik vositalar (avtomobil, aloqa vositasi, kompyuter texnikasi) bilan to‘liq ta’minlanmaganlik;

huquqiy savodxonlikning ba’zida yetarli emasligi;

aholining ba’zi qatlamlarida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga nisbatan ishonchszilik mavjudligi.

Bu muammolarni hal qilish uchun tizimli yondashuv, resurslarni to‘g‘ri taqsimlash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zarur.

### **Xulosa**

Profilaktika inspektorlarining faoliyati jamiyatda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, tinchlik va osoyishtalikni ta‘minlashda beqiyos ahamiyatga ega. Ular ijtimoiy muhitni chuqr o‘rganib, jinoyatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘layotgan omillarni bartaraf etishda faol ishtirok etmoqdalar. Shu bois, ularning moddiy-texnik ta‘minotini kuchaytirish, malaka oshirish kurslarini tizimli yo‘lga qo‘yish va jamoatchilik bilan aloqani mustahkamlash muhim hisoblanadi.

Profilaktika inspektori – bu nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi, balki xalq orasida obro‘ga ega bo‘lgan ishonchli, mehribon, ammo qat’iy shaxs bo‘lishi lozim. Faqat shunda huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash va oldini olish borasida kutilgan natijalarga erishish mumkin bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 2016 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallabay ishslash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi farmoni, 2021 yil.
3. Xolmatov N. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi: nazariya va amaliyot” – Toshkent: Yuridik nashriyot, 2020.
4. “Ichki ishlar tizimida profilaktik faoliyat asoslari” – O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi darsligi, 2022.